

YOSHILAR
OVOZI

BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#48 (16702)
2025-yil 3-dekabr,
chorshanba



Foto: Zuhritdin UMURZOQOV, O'za

INSON QADRI VA ADOLAT USTUVORLIGI GAROI

➔ 3-bet

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi asosida mamlakatimizda Bosh qomusimiz qabul qilingan sana "Konstitutsiya – inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garoi!" degan bosh g'oya asosida nishonlanmoqda.

Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Odiljon Mamatkarimov Konstitutsiya haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

– Har bir mustaqil davlat hayotida Konstitutsiya eng oliy huquqiy hujjat sifatida alohida o'rin tutadi. U mamlakat taraqqiyotining huquqiy asosini belgilabgina qolmay, xalqning orzu-intilishlari, qadriyatlari va kelajakka ishonchini o'zida mujassam etadi.



G'ALABA HIKOYASI

➔ 2-bet

To'rtko'l tumani G'alaba mahallasida erta tongdan gavjum sport maydonchasi, maktabga shoshayotgan bolalarning mehrlari qarashlari o'zgarib xotirjamlik beradi kishiga. Mahalla hayoti bir qarashda oddiy tuyulishi mumkin, ammo bu yerda yangicha o'zgarishlar shamoli esib turibdi...

Ushbu mahallada Muhayyo Kamilova yoshlar yetakchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. 2024-yilda u "Yetakchi spartakiadasi" doirasidagi shaxmat musobaqasining Qoraqalpog'iston bosqichida hamda "Eng yosh ma'naviyatchi" tanlovining tuman bosqichida ikkinchi o'rinni, "Yilning eng namunali mahalladagi yoshlar yetakchisi" tanlovining tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, faqat mahallada emas, balki tumanda va respublikada ham tanila boshladi.

2025-yilda ham yetakchining yutuqlari keti uzilgani yo'q.



JAHON SHAXMAT KUBOGI O'ZBEKISTONDA

➔ 2-bet

JAVOHIR SINDAROVGA "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATGAN SPORTCHI" FAXRIY UNVONI TOPSHIRILDI.

JAVOHIR SINDAROV

Tug'ilgan sanasi: 2005-yil 8-dekabr
Tug'ilgan joyi: O'zbekiston, Toshkent
Unvoni: Grossmeyster (2019-yil)
Maksimal reytingi: 2722 (2025-yil, iyul)
Amaldagi reytingi: 2721 (2025-yil, noyabr)
Mukofotlari: O'zbekiston ixtisori; O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi

STEAM TA'LIMI: MILLIY TAJIRIBA

➔ 3-bet

STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi va davlat ta'lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Demak, ilmfan, texnologiya, muhandislik va kreativ yondashuvning uyg'unlashuvi bugungi ta'limning markazida turibdi. Rivojlangan davlatlarning aksariyati STEAMni ta'lim tizimining tayanch modeli sifatida qabul qilgan. AQShda 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy ta'lim strategiyasida STEAM innovatsion iqtisodiyotning asosiy unsuri sifatida belgilangan bo'lib, maktabdan to oliy ta'limgacha amaliy tadqiqotlar, muhandislik loyihalari va kreativ dizayn sohalari o'rgatish chuqurlashtirilmoqda.



PULGA CHIQUINDI SOTIB OLASIZMI?

➔ 4-bet

**EKOFAOLLARNING
FIKRICHA, BUGUN
ODAMLAR PULGA
CHIQUINDI SOTIB
OLYAPTI...**

Ha, hozir chiqindi ham pul. Lekin buni qanday sotishni bilish kerak xolos. Ayrim savdo shoxobchalarida xarid qilingan mahsulotni solish uchun pulli paketlar taklif qilinadi. Olmasangiz, sotuvchi sizni "past" ekan, demaydi. Lekin xaltangiz bo'lmasa, majbur olasiz. Savdo markazining brendi tushirilgan 4 yoki 8 kilogramm yukka mo'ljallangan paketlar o'rtacha yarim soatdan so'ng plastik chiqindiga aylanadi. Axir bu paketni ikkinchi marta "Korzinka"ga ko'tarib kelmaysiz-ku...

Mana buni zamonaviy marketing desa bo'ladi. XXI asrda chiqindi ham pul.

AZALIY EHTIYOJ

➔ 3-bet

Insoniyat tarixiga oid eng qadimgi yozma yodgorliklar orasida hukm, mezon, qoidaga doir matnlar alohida e'tiborga molik. Odamlarning dastlabki yozuvlari yulduzlar yoki gullar haqida emas, balki tartib haqida bo'lgan...

Qadimgi Shumerdan topilgan loy taxtachalardagi Hammurapi qonunlarini eslang. Matnlar orqali o'sha zamon kishilari nimalarni muhim deb bilganini ko'rish mumkin. Ular kuchning adolatdan ustun turishidan cho'chigan. Bir odam boshqasining moliga, qadr-qimmatiga, hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishining oldini olishga uringan. Yerga egalik, zararni qoplash, oila mas'uliyati kabi mavzular haqida gap ketib, jamiyatni boshqarish yo'lini belgilagan.



ASTRAL OLAM

➔ 4-bet

"Astral olam" atamasi qadimgi yunon tilidagi "astron" – "yulduz" so'zidan kelib chiqqan. Qadimda odamlar ruh tanani tark etgach, osonmanga – yulduzlar tomon ketadi deb o'ylagan. Shuning uchun bu tushuncha "astral sayohat" deb atalgan.

Bugungi kunda ham ko'plar tanadan chiqish, uchish yoki o'z tanasini yuqoridan ko'rganday holatlarni astral sayohat sifatida talqin qiladi. Ammo ilmiy tadqiqotlar bu hodisani boshqacha tushuntiradi.

2023-yilda Shvetsiyaning Lund universiteti tadqiqotida olimlar insonning tanani idrok qilishi miyadagi "tana xaritasi" bilan bog'liq ekanini isbotladi. Kuchli charchoq, stress yoki uyquga ketish jarayonida bu xarita vaqtincha buzilishi mumkin. Natijada odam o'zini go'yo tanasidan ajralganday his qiladi. Olimlar bu holatni "dissosiyativ og'holati" deb ataydi.

JAHON SHAXMAT KUBOGI O'ZBEKISTONDA

JAVOHIR SINDAROVGA
“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
XIZMAT KO'RSATGAN SPORTCHI”
FAXRIY UNVONI TOPSHIRILDI.




Bu mukofotlar O'zbekiston shaxmat maktabi rivojiga qo'shilgan ulkan hissani va Javohirning xalqaro miqyosdagi yutug'ining tarixiy ahamiyatini ifodalaydi.

FIDE Jahon kubogi jahon shaxmatidagi eng nufuzli musobaqalardan biri bo'lib, unda g'oliblik yosh grossmeysterning nafaqat shaxsiy, balki milliy miqyosdagi ulkan muvaffaqiyati hisoblanadi.

Sindarov Vatanga g'alaba bilan qaytgan shu kunlarda Prezident Olimpiadasiga start berilganida ham katta ramziy ma'no bor. Davlat rahbari bu tashabbus yoshlarni sport orqali bir-

lashtirish, iqtidorlarni erta aniqlash, xalqaro musobaqalarga tayyorlash va sport maktablari-da raqobatbardosh tizim yaratish uchun muhim maydon bo'lishini ta'kid-ladi. Ana shu platforma kelajakda Sindarov kabi yangi chempionlar shakllanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.



SayyorAI,
“Yoshlar ovozi”
sun'iy intellekt muxbiri

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Javohir Sindarovning g'alabasi o'zbek shaxmat maktabi qanday rivojlanayotganini yana bir bor ko'rsatdi. So'nggi yillarda ko'plab o'yinchilar xalqaro musobaqalarda ko'rinish bera boshladi, reytinglarda eng yuqori o'rinlarni band qilishgan. O'rta avlod vakillari barqaror natija qayd etayotgan paytda yoshlarda butunlay boshqa kayfiyat seziladi. Ular xalqaro sahnaga chiqishdan

hayiqmaydi, reytingdagi raqamlar ularga to'siq bo'lib ko'rinmaydi, tajriba masalasi esa ularda kamchilik sifatida qabul qilinmaydi. Sindarov shu kayfiyatning eng yorqin namunasiga aylandi.

Shaxmatchilar odatda o'yin uslubi bilan taniladi. Sindarov esa ko'proq o'zining barqaror o'yinlari bilan esda qoladi. Unda yangi avlod xarakteri aniq sezilib turadi: o'yin tezligiga mos-

lashish, variantlarni tez almashtirish, turnirlar davomida energiyani bir xil ushlab turish. Klassika ishqibozlari uchun bu holat avvaliga g'alati ko'ringan bo'lishi mumkin, lekin hozir shaxmat aynan shunday o'ynal-yapti.

Yana bir jihat shundaki, u hech qanday “yulduzlik kayfiyati”ga berilmagan. Bu holat bugungi yosh shaxmatchilar orasida tobora ko'proq uchrayapti. Ular o'yin natijasini yakuniy marraga o'xshatmaydi. Turnir tugashi ular uchun yo'lining tugashi emas, yangi marraning boshlanishiga o'xshaydi. Sindarovning yo'li ham shunday: bir bosqich ortda qolsa, darhol keyingisi haqida o'ylay boshlaydi.

“KITOB OLAMI” FESTIVALI



5-6-dekabr kunlari Toshkentdagi Yoshlar ijod saroyida “Kitob olami” kitoblari festivali bo'lib o'tadi. Tadbir O'zbekiston yoshlar ittifoqi, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi va O'zbekiston noshirlari va kitob savdosi tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamkorligida tashkil etiladi.

Bu ikki kun davomida o'quvchilar, ijodkorlar, yosh tadqiqotchilar va kitobsevarlar uchun katta maydon yaratilib, kitob atrofida birlashish, yangi manbalar va yangi ilhomlarni izlab topish imkonlari bo'ladi.

Festival doirasida:

- O'zbekiston va xorijiy nashriyotlarning yangi kitoblari taqdim etiladi;
 - festival mehmonlari o'zlarini qiziqirgan kitoblarni sotib olish imkoniga ega bo'ladi;
 - taniqli yozuvchilar va shoirlar bilan uchrashuv tashkil etilib, suhbatlar erkin tarzda olib boriladi;
 - savol-javob, viktorina va bilim sinovlari o'tkaziladi. Eng faol qatnashuvchilarga esa esdalik sovg'alari mavjud.
- “Kitob olami”da sizni yangi bilimlar, yangi tanishuv va taassurotlar kutmoqda.

BIZNING KAFOLAT



Biz ko'p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar, umuman, axborot makoniga oid qonunlarni bilish va rioya qilish juda zarur. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilishni o'rganish zamonaviy talablarni qaratadi. O'zgarib bora bora haqorat qilish, kamsitish qonun bilan jazolanadi. Jamoat xavfsizligiga taalluqli yolg'on xabar tarqatish, boshqalarning surati va videolarini ruxsatisiz e'lon qilish, ekstremizm va terrorizm targ'iboti, mualliflik huquqini buzish, soxta akkaunt ochish kabilar taqiqlanadi. Shu sabab qonunlarni o'rganish zarurati bor. Birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini mukammal bilishimiz, o'rganmog'imiz dardkor.

Qolaversa, bu muhim hujjatda yoshlarning bir qancha huquqlari kafolatlangan. Konstitutsiyaning 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlarini himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi...” deb yozib qo'yilgan. 50-moddada ta'lim olish, 53-moddada ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalalanish huquqi kafolatlangan.

Konstitutsiyaning XIV bobi oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlanganining o'zi ham yosh avlodga berilgan katta e'tiborni bildiradi. Shunday ekan, yoshlar bu imkoniyatlardan qanday foydalanyapti va qanday javob qaytarmoqqa hozirlangan?

Asilko'ja QODIROV,
TATU akademik litseyi o'quvchisi

G'ALABA HIKOYASI

200 NAFAR YOSH TIL O'RGANYAPTI

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash yetakchi faoliyatining eng mas'uliyatli jihatidir. 2025-yilda 6 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo'lsa, ular bilan alohida yondashuv asosida ish olib borildi. 3 nafar yoshning kontrakti to'lab berildi. 1 nafar yosh o'ziga kerakli asbob-uskunaga ega bo'ldi, yana 2 nafari zamonaviy kasb-hunar kurslariga yuborildi.

“Yoshlar daftari”dan ko'mak olgan Shohruh Sa'dullayev bugun maktabda ingliz tili o'qituvchisi, shuningdek, “Platina” o'quv markazida 200 dan ortiq yoshga ingliz tilini o'rgatyapti.

– Muhayyo Kamilovaning yordami bilan hayotim o'zgardi, u menga ishonmaganida, balki men bugun bu joyda bo'lmasdim,– deydi Shohruh Sa'dullayev. – Kontraktini to'lay olmay, o'qishni tashlash xayolida yurgan edim. Muhayyo opa meni birinchi gaplashganimizdayoq qo'llab-quvvatladi. O'qishimni davom ettirdim. Bugun o'qituvchiman, yuzlab bolalarning ko'zidagi ishonchni ko'rganimda o'zim ham kuch olaman. O'quv markazida esa 200 yuzdan ortiq yoshga ingliz tilidan dars beraman. Davlat bergan imkoniyatni endi men boshqalarga berishga harakat qilaman.

JINOYATCHILIKDAN XOLI HUDUD

2022-yildan buyon G'alaba mahallasida birorta jinoyat sodir etilmagan. Chunki yoshlar bilan doimiy suhbatlar, uyuma-uy profilaktika, kiber-jinoyatlardan ogohlantirish, maktab bilan hamkorlik, bo'sh vaqtlarini to'ldirish bo'yicha qilingan keng qamrovli ishlar samara beryapti.



Mahalla yoshlari “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida faol ishtirok etdi. “Mutolaa” loyihasida 150 nafar yosh ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular hozir 190 dan ortiq kitobni o'qib chiqdi. “Qizlar akademiyasi”da 90 nafar qiz bepul o'qimoqda. “UzChess” loyihasi orqali 50 nafar yosh 420 ta shaxmat darsini mutlaqo bepul o'rganyapti.

Muhayyo KAMILOVA

To'rtko'l tumani G'alaba mahallasi yoshlar yetakchisi

G'ALABA MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
2148 nafar;
Yoshlar:
575 nafar;
Ayol-qizlar:
297 nafar.

– Avvaliga hadiksiradim: ishni boshlay olamanmi, mijoz topiladimi, oilamni boqishga kuchim yetadimi deb. Chunki ishni nimadan boshlashni bilmasdim, – deya eslaydi Nizomaddin Bekchanov. – Bugun kichkina ustaxonamdan mijozlar qadami uzilmaydi. Hayotimda ilk bor ertangi kunimga qat'iy reja tuzadigan bo'ldim.

Tohirbek Komiljonovning taqdiri ham e'tibordan chetda qolmadi. U 1-sinfidan boshlab og'ir ijtimoiy sharoitda voyaga yetgan bo'lsa-da, zamonaviy kasblar bo'yicha o'qitilib, o'z yo'lini topishga muvaffaq bo'ldi. Bugun u oliy ta'limdagi kontrakt to'lovini o'zi to'lab, Toshkentdagi “Hilol Edu” o'quv markazida ishlayapti.

**YOSHLARNING
BUGUNGI IMKONIYATI –
ERTANGI KUNIMIZNING
POYDEVORI.**



QIZLAR TAQDIRI

Muhayyo mahalla qizlarining ta'limi, mehnat qilishi, hayotda o'z yo'lini topishi uchun hammadan ko'proq qayg'uradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nazokat Ramonovanning 100 million so'm kredit asosida ochgan “Desert kafe”si va novvoyxonasi, Zuhra O'rinbayeva uchun ajratilgan yordam, Gul Yusupovanning hamshiralik faoliyati – bularning barchasi yetakchining jonkuyarligi bilan qaror topgan.

Zuhra O'rinbayeva hozir Farg'ona davlat universiteti talabasi. U bir necha bor jarrohlik amaliyotini boshdan o'tkazdi. Uning davolanishi uchun moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, u o'qishdan tashqari vaqtida bolalar kiyim do'konida sotuvchilik qilib, o'zini moddiy jihatdan ta'minlash darajasiga chiqib oldi.

**HAYOTIMDA
ILK BOR ERTANGI
KUNIMGA QAT'IY
REJA TUZADIGAN
BO'LDIM.**



HIKOYA DAVOM ETADI

Muhayyoning bosh maqsadi yoshlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratish, mahalla hayotini yangi bosqichga ko'tarish. U eng birinchi zamonaviy bilimlar markazini tashkil etish ustida bosh qotiryapti. Bu markazda AT, grafik dizayn, robototexnika, tezkor ingliz tili kurslari yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, u qizlar uchun alohida “Psixologik ko'mak va ijtimoiy faollik maktabi”, “Mahalla kitob uyi”ni ochishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, sport musobaqalari, boshqa ijtimoiy loyilar rejalashtirilyapti.



Maqsadlari haqida gapirar ekan, Muhayyo shunday deydi:

– Yoshlar har kuni o'sib boryapti. Ularning bugungi imkoniyati – ertangi kunimizning poydevori. Biz imkon yaratib bersak, ular natija ko'rsatadi. Mahallamizda hech kim orqada qolmasligi kerak. Rrejalarimning barchasi mana shu g'oyaga xizmat qiladi.

Qahramonimizning hikoyasi od-diy natija haqidagi raqamlar emas. Bu hikoya o'zgalarga yo'l ko'rsatish, yoshlar hayotiga mustahkam poydevor qo'yish hikoyasidir. Eng muhimi, u hali davom etmoqda.

**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,**
“Yoshlar ovozi” muxbiri

Steam ta’limi:

MILLIY TAJRIBA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



ekotizimiga yoshlarni faol jalb etish va hokazo.

O‘zbekiston bugun STEAM ta’limi orqali yangi avlod muhandislari, olimlari, texnologlar, dizaynerlar va innovatorlarni tayyorlaydigan zamonaviy ta’lim makoniga aylanyapti.

– STEAM o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Dars jarayonida o‘quvchi faqat ma’lumotni qabul qilmaydi, balki uni izlaydi, sinaydi va o‘ziga xos tarzda qayta yaratadi. Bu – XXI asr ta’limining asosiy talabi, – deydi pedagog mutaxassis, dotsent Nilufar Matkarimova.

O‘zbekiston maktablarida o‘quvchilarni tadqiqotchilikka yo‘naltirish, savol berishga undash, loyihalar orqali o‘z g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga o‘rgatish amaliyoti kengaymoqda. Nilufar Matkarimovaning ta’kidlashicha, bugungi avlodning texnologiyaga qiziqishi juda yuqori va bu salohiyatni ta’lim tizimi qo‘llab-quvvatlashi katta samara beradi.

STEAM ta’limi tadqiqotchisi Azizbek Xolboyevning fikricha, davlat, ta’lim muassasalari va xususiy sektorning faol hamkorligi bilan STEAMning rivojlanish sur’ati ortmoqda.

– STEAM texnologiya bilan cheklanib qolmaydi, – deydi mutaxassis. – U san’at, tasavvur, dizayn va muhandislikning uyg‘unlashuvi orqali o‘quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantiradi. Raqamli iqtisodiyotda ayni shu integratsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro ta’lim bo‘yicha ekspert Kamola Ergasheva fikricha, dunyoning eng muvaffaqiyatli ta’lim tizimlari: Finlyandiya, Singapur, Yaponiya maktablarida bolalarga qat’iy darslarni emas, balki mustaqil izlanish, jamoada ishlash, muammoni hal qilish, loyihalashtirish va yangilik yaratish ko‘nikmalarini singdirishga urg‘u beriladi.

– Muammolarni ko‘ra oladigan va ularga yechim topishga jur’at qiladigan yoshlar kelajakda muvaffaqiyatga erishadi. STEAM ta’limi shu jur’atni uyg‘otadi, shu kompetensiyani shakllantiradi. Bu – bugungi dunyo ta’limining eng katta talabi, – deydi Kamola Ergasheva.

Ekspert O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda sezilarli natijalarga erishayotgani, o‘quvchilarning o‘ziga ishonchi oshayotganini ta’kidlaydi.

Sevinchbonu BOBOYOROVA



INSON QADRI VA ADOLAT USTUVORLIGI GAROVI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Konstitutsiya faqat huquqiy hujjat emas, balki xalqni birlashtiradigan, fuqarolar-tutlarini rivojlantirish, sud-huquq sohasida adolatni ta’minlash kabi muhim sohalaridagi islohotlar aynan Konstitutsiya me’yorlari asosida amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri xalqning davlat va jamiyat hayotini isloh etishga bo‘lgan qat’iy ishonchini, faol fuqarolik pozitsiyasini yaqqol namoyon etdi. Bu referendum faqat huquqiy hujjatni yangilash emas, balki “Inson qadri uchun” degan g‘oyani aynan siyosati darajasiga ko‘targan, xalq va davlat o‘rtasidagi ochiq muloqot samarasi bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra tarixiy ahamiyatga ega. Unda O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlanib, davlatning insonga, uning farovon

huquqiy asosi bo‘lib kelmoqda. Davlat boshqaruvi tizimini takomillash-tirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, sud-huquq sohasida adolatni ta’minlash kabi muhim sohalaridagi islohotlar aynan Konstitutsiya me’yorlari asosida amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri xalqning davlat va jamiyat hayotini isloh etishga bo‘lgan qat’iy ishonchini, faol fuqarolik pozitsiyasini yaqqol namoyon etdi. Bu referendum faqat huquqiy hujjatni yangilash emas, balki “Inson qadri uchun” degan g‘oyani aynan siyosati darajasiga ko‘targan, xalq va davlat o‘rtasidagi ochiq muloqot samarasi bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra tarixiy ahamiyatga ega. Unda O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlanib, davlatning insonga, uning farovon



Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida davlat va jamiyat ravnaqini ta’minlaydigan, inson qadri oliy mezon sifatida belgilab bergan tarixiy hujjatdir.

Konstitutsiya asrlar davomida xalq-qimizga xizmat qiladigan, adolat va taraqqiyot yo‘lida ishonchli dasturlar amal bo‘lib qoladi. Unda sodiq qolgan holda yashash va unda belgilab qo‘yilgan tamoyillarni hayotga tatbiq etish har birimizning muqaddas bur-chimizdir.

O‘ZA muxbiri
Norgul ABDURAIMOVA
yozib oldi.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

AZALIY EHTIYOJ

Yoki “Temur tuzuklari”ni olaylik. Tuzukning har bir bo‘limida davlatni qanday ushlab turish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Odamning vazifasi, mas’uliyati, boshqaruvning mezonlari haqida gap ketgan. Bu matnlar bir davrning sharoitidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, inson xulqini boshqarish zarurati o‘zgarmaganini ko‘rsatadi. Nizomulmulkning “Siyosatnoma”si hokimning adolatni qanday tiklashi, mansabdorning qanday xizmat qilishi, xalqning roziligini qanday saqlash mumkinligi haqida chuqur mulohazalarni jamlagan. Islom fiqhida esa odamlar o‘rtasidagi munosabat, savdo, meros, sud, oila va boshqa ko‘plab masalalar tartibga solingan. Yana ham o‘tmishga qaytsak, “Avesto” matnlarida halollik, jazo, mehnat, jamiyat olididagi javobgarlik haqida ko‘rsatmalar borligi aytiladi. Bu manbalarning barchasi turli davrlarga tegishli, lekin ularni bog‘lab turadigan umumiy tushuncha bitta.

Bashar taraqqiyotining har bir bosqichi huquqiy fikrning kengayishi bilan belgilanadi. O‘rta asrlarda hukmdor-zodagonlar saroydan narining fikrini inobatga olmagan qoidalar tuzgan. Keyinroq jamiyatlar rivojlangacha, qonunlar umumxalq kelishuvi sifatida shakllandi. Yozuv, bosma nashrlar,



“TEMUR TUZUKLARI”NING HAR BIR BO‘LIMIDA DAVLATNI QANDAY USHLAB TURISH MUMKINLIGI HAQIDA FIKR YURITILGAN.

maktablar, ilm markazlari ko‘payishi bilan huquqiy madaniyat kengayib bordi. Endi qonunlar bir guruhning emas, butun jamiyatning mulkiga aylandi.

Bugungi kunning murakkabliklari o‘sha qadimiy ehtiyojni yanada oshiradi. Davlatlarning o‘zaro bog‘liqligi kuchaygan, texnologiyalar tezlashgan, axborot oqimi o‘zanidan toshar dara-

jada, bunday zamonda esa qoidalarsiz yashash tasavvurga sig‘maydi. Kishilar har kuni yuzlab qarorlar qabul qiladi. Ishlaydi, o‘qiydi, sayohat qiladi, fikr bildiradi. Ana shu harakatlar orasida inson o‘zini himoyalangan va mas’uliyatli sezishi zarur. Qonun amalda ishlasa, odamlar o‘zini erkin sezadi. Qonun adolatli bo‘lsa, jamiyatda ixtilof bo‘lmaydi, davlatning tayanchi ham mustahkam bo‘ladi.

Agar mezonlar shunchaki qog‘ozda qolsa, o‘sha yozuqlarning o‘zi ham qadrsizlanadi. Ijtimoiy hayotdagi muammolar shu “qog‘oz” va amaliyotdagi uzilishdan kelib chiqadi. Bunday vaziyatda o‘z-o‘zidan xalq ishonchiga darz ketadi.

Shu sabab konstitutsiya degan qomus xalqning o‘z kelajagini ko‘rishga intilgan yirik kelishuv sifatida ahamiyatli. Vaqt o‘tib avlodlar o‘z tajribasiga tayanib, bu hujjatga turlicha qarashi mumkin. Kimdir undan erkinlik izlaydi, kimdir adolat kutadi, yana kim tartibga intiladi. O‘zgarishlar ehtiyoji paydo bo‘lishi-da tabiiy. Lekin bir narsa o‘zgarmaydi: konstitutsiya o‘z kuchini faqat jonli hayotdan, jamiyatdan oladi.

Insoniyatning minglab yillik tajribasi qonunning abadiy qadriyat ekanini ko‘rsatadi. Qadimgi taxtachalardan boshlangan iz zamonaviy konstitutsiyalargacha yetib kelgan. Barcha davrning o‘z muammosi, o‘z sharoiti bor, lekin tartib tamoyili o‘zgarmaydi. Jamiyatlar rivojlansa-da, bu oddiy haqiqat o‘z kuchini yo‘qotmaydi. Nafslarini aytganda, qonun ishlasa, davlat yashaydi, inson o‘zini erkin sezadi, kelajak manzarasi esa aniqroq ko‘rinadi.

Shahobiddin LUQMON

ANDIJON — TURKIY DUNYONING MADANIYAT POYTaxTI



QOZOG‘ISTONNING AQTAU SHAHRIDA XALQARO TURKIY MADANIYAT TASHKILOTI – TURKSOY DOIMIIY KENGASHINING 42-YIG‘ILISHI BO‘LIB O‘TDI.



Unda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Qozog‘iston Respublikasi madaniyat va axborot vaziri Aidan Balayeva, Turkmaniston madaniyat vaziri Atageldi Shamiradov, Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri o‘rinbosari Murad Guseynov, Qirg‘iz Respublikasi madaniyat, axborot va yoshlar siyosati vazirining birinchi o‘rinbosari Asqarali Madaminov, Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vazirining o‘rinbosari Serdar Cham, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev ishtirok etdi.

Yig‘ilishda TURKSOY tomonidan joriy yilda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi.

2026-yilda o‘tkaziladigan tadbirlar rejasini, qo‘shma loyihalar va turkiy dunyoning madaniy sohadagi hamkorligini yanada mustahkamlashga oid masalalar muhokama qilindi.

Shuningdek, joriy yilda Turkiy davlatlar tashkilotining Gabala shahrida bo‘lib o‘tgan sammiti doirasida qabul qilingan “TURKSOY tashkilotini rivojlantirish va mustahkamlash to‘g‘risida”gi qaror ijrosini ta’minlash dolzarbligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov bu juda muhim hujjat ekanini alohida qayd

etib, uning ijrosi TURKSOYning xalqaro tashkilot sifatidagi maqomi va mavqeyini yuksaltirishga xizmat qilishini bildir-di. Shu bilan birga, qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Ma’lumki, TURKSOY Doimiy kengashi qarori bilan har yili turkiy tilli davlatlardagi shaharlardan biri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” sifatida e’lon qilinadi. Bunday maqomga ega bo‘lgan shaharda va hamkor davlatlarda qator madaniy tadbirlar, festivallar, ilmiy anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etiladi. Bu orqali milliy madaniyat xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilinadi. Qolaversa, bunday tadbirlar sayyohlar oqimini oshirishga ham xizmat qiladi.

Quvonarli shundaki, TURKSOY Doimiy kengashining 42-yig‘ilishida Andijon shahri 2026-yilda “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e’lon qilindi.

Bu xushxabar yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan olqishlar bilan kutib olindi.

Tadbirlarning tantanali yopilish marosimida Andijon shahri hokimligiga maxsus sertifikat topshirildi.

Doimiy kengash yig‘ilishi yakunida kun tartibida ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilinib, tegishli hujjatlar imzolandi.

Nazokat USMONOVA,
O‘ZA muxbiri



PULGA CHIQUINDI SOTIB OLASIZMI?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

XORIY Tajribasi O'zbekistonda ish bermayapti

Chiqindi sotish dunyo tajribasida bor. Masalan, Xitoy Yevropadan chiqindi sotib oladi. Uni qayta ishlab, yana sotadi. Ammo biz nazarda tutayotgan holat bu emas. Yevropaning ayrim davlatlarida ham savdo markazlarida yelim paketlar xuddi bizdagi kabi pulli. Ammo tizim boshqacha ishlaydi: paketdan tushgan pullar tabiatga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararining oldini olishga yo'naltiriladi. Natijada plastik chiqindilarni 40 foizgacha kamaytirishga erishilgan.

Bizning amalmiz esa xorijiy tajribaning aksini ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yiliga 1,5 million tonnaga yaqin plastik chiqindi chiqariladi. Bu 2013-yilgi ko'rsatkichdan ikki barobarga ortgan.

PAKETNI SOTISHDAN MAQSAD NIMA?

Savdo markazlarida bir kunda minglab paketlardan foydalaniladi. Sotilgan paketlar biroz vaqt o'tib tashlab yuboriladi. Dunyo bo'yicha yiliga 400 million tonnadan ortiq plastiq chiqindi hosil bo'ladi. Bu turdagi chiqindi 100 yillab saqlanib qoladi.

Savdo nuqtalarida pulli paketlar tizimini joriy qilishdan maqsad atrof-muhitni plastik chiqindilardan asrashmi yoki 990 so'm etib belgilangan mahsulotlar tannarxidan qo'shimcha foyda olishmi? Agar bundan ko'zlangan maqsad global ekologik muammoni to'xtatish bo'lsa, nega odamlar buni anglab yetmayapti?

Tajribani faqat zarariga ishlatyapmiz

Chiqindini qayta ishlash bobida biz Xitoy emasmiz, ammo Yevropa erishgan natijaga ham chiga olmayapmiz. Mutaxassislarning aytishicha, plastik chiqindilardan hosil bo'lgan mikroplastiklar oziq-ovqat mahsulotlari va havo orqali organizmga kiradi. Natijada saraton xastaligi xavfi ortadi. Bu tadqiqotlarda isbotlandi. Shunda biz foydali tajribani faqat zararga ishlatyapmizmi?

SOTILGAN PAKETLAR PULI NIMAGA SARFLANADI?

Savdo shoxobchalaridagi pulli paketlar o'rtacha hisobda 650 so'm. Hisoblashga arzimaydi. Lekin paketning bir o'ramida 100 dona bo'lsa 65 ming so'm bo'ladi. Bitta savdo markazi bir kunda qancha o'ramdagi paket sotadi? Ana endi bu hisob-kitob qilishga arziydi. Ekofaollarni qiziqtirgan masala shundaki, bu tajriba Yevropada bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida joriy etilayotgan bo'lsa, paketlar sotuvidan tushayotgan mablag'ni ekologiya tadbirlariga yo'naltirish kerak emasmi?

QONUN NIMA DEYDI?

Vazirlar Mahkamasining 711-sonli qarorida plyonkali paketlarni bepul berish taqiqlanishi aniq ko'rsatilgan. Lekin qarorda paket sotuvidan tushgan pullarni atrof-muhit muhofazasi uchun yo'naltirish haqida band yo'q. Demakki, bu pul ayni kunda nazorat qilinmaydi.

Yevropada plastik paketlar sotuvidan tushgan pul ma'lum maqsadlarga ishlatiladi. Masalan, Irlandiyada xarid davomida olingan paket puli davlatga to'lanadi. Bu qonun bilan belgilangan va huquqiy asosga ega. Plastik paketlar uchun maxsus ekologik to'lov 2002-yilda kuchga kirgan. To'lov maxsus jamg'armaga o'tkaziladi va jamg'arma orqali chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash yoki plastikdan qutulish bo'yicha ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

"ZERO WASTE"

O'zbekistonda yiliga 7 million tonnadan ortiq chiqindi hosil bo'ladi. Qayta ishlash darajasi esa 30 foizga ham yetmaydi. Plastik paketlar va polietilen qadoqlar savdo nuqtalarida pulga sotilsa ham, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy muammo bo'lib qolmoqda.

Ekologiyada "Zero Waste" – nol chiqindi atamasi bor. Bu tabiatga zarar yetkazmaslik uchun chiqindilarni imkon qadar nol darajaga tushirish qoidasidir:

- chiqindi kamaytiriladi;
- qayta foydalaniladi;
- qayta ishlanadi;
- imkon qadar chiqindi hosil qilinmaydi.

Yoki buni shunday tushunsak bo'ladi: biror korxona yoki muassasa tabiatga yetkazayotgan zarari miqdorida foyda keltirishi, hech bo'lmaganda zararini "nol" darajagacha bartaraf etishi kerak.

Asliddin ABDUG'AFFOR o'g'li

ASTRAL OLAM

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

2022-yilda Kanadaning Toronto universitetida 2100 nafar ko'ngilli ishtirok etgan tadqiqotda tanadan chiqish hissi asosan kuchli charchoq holatida, uyqu falajida, ongli tush va xavotir kuchaygan paytlarda sezilgani aniqlangan. Bu holatlarning barchasi miyada real harakat va tasavvur qilingan harakat signallarining aralashib ketishidan kelib chiqadi.

Nima uchun odamlar buni haqiqat deb o'ylaydi? 2021-yilgi Oksford universiteti psixologiya fakulteti olimlari tahliliga ko'ra: inson miyasi kuchli hissiy holatda haqiqiy bo'lmagan tajribalarni "real" deb qabul qiladi; tanani yuqoridan ko'rganday bo'lish hodisasi ko'rish markazlari va tanani sezish markazlarining sinxronlashmay qolishi bilan bog'liq; miyadagi xavfsizlik instinkti bunga o'z ma'nosini yuklab, uni "sayohat" yoki "chiqib ketish" deb talqin qiladi.

Xo'sh, shunda astral sayohat afsonami? Bu hodisaning ilmiy ta'rifi bor, biroq ruhning boshqa dunyolarga chiqishi ilmiy tomondan tasdiqlanmagan. Shunga qaramay, bu holat butun dunyoda astral sayohat sifatida talqin qilinishi ko'p uchraydi. Chunki noodatiy sezimlar odamni qiziqtiradi, inson noma'lumlikni izlashga moyil, ongdagi cheklovlar haqida o'ylar kishini tortadi.

Astral sayohat – qiziqarli mavzu. Lekin bu hodisa miyaning ichki jarayonlari, sensor signallarning chalkashishi va uyqudagi ong holatlari bilan bog'liq. Ya'ni gap "ruh tanadan chiqishi"da emas, balki ongning biz bilmagan sirli jihatlarida. Dunyoviy bilimlar shunday tushuntiradi...

Zebo TO'XTASINOVA,
Chust tumani 19-maktabning
11-sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTON YOSHLAR
YETAKCHILARINI
QO'LLAB-QUVVATLASH
MARKAZI

TOG'DA KIBERSPORT

CHO'L PONNING "KECHA VA KUNDUZ"

ROMANIDA
QO'LLANGAN
BA'ZI SO'ZLAR
VA ULARNING
MA'NOSI

ABDULHAMID CHO'L PON

KECHA VA KUNDUZ

Elchimoq – ergashmoq.
Boki – zarar, xavf-xatar.
Hech boki yo'q – zarari yo'q.
Xulyorang – pushtirang.
Tangir qolmoq – ajablanmoq, lol qolmoq.
So'qishmoq – jang qilmoq, urishmoq.
Izmon – mezbon.
Zambar – zambil.
Xulya – xayoliy, sarob.
Hopituvchi – cho'miluvchi.
Chinoyoq – suv, choy ichadigan kichik idish, chashka.

Jahongir NE'MATOV,
Bo'stonliq tumanidagi Do'stlik mahallasi yoshlar yetakchisi

TIL BILIMI

Elmurod NISHONOV
to'plagan.

CHO'L PONNING "KECHA VA KUNDUZ"

ROMANIDA
QO'LLANGAN
BA'ZI SO'ZLAR
VA ULARNING
MA'NOSI

ABDULHAMID CHO'L PON

KECHA VA KUNDUZ



SOVUQQA CHIDAMLI VA YASHOVCHAN

S himoldan uchib kelgan yovvoyi o'rdaklarning bir galasi Zarbdor tumanidagi Tog'aytepa va Sutbuloq qishloqlari hamda "Navro'z" kanali qirg'oqlarida nasl qoldirish uchun uyalab qoladi. Sovuqqa chidamli va yashovchan bu qushlar guruh-guruh bo'lib manzildan manzilga ko'chib yuradi. Ularga suv havzalari bo'lsa kifoya. Jangari fe'li bor. Polaponlari yashab qolishi uchun jon-jahdi bilan kurashadi.

Yovvoyi o'rdaklar qanotidagi ko'zga yaqqol tashlanuvchi oq yo'l-yo'l chiziqdari ajoyib go'zallik baxsh etib, yurtimizning ko'l, daryo va suv havzalarida turli hasharot, chuvalchang, mayda baliq hamda barra o'tlar bilan oziqlanadi. Tumshug'i yassi va sezgir bo'lganidan molluskalarni osonlikcha tutib yeydi.

Qushlar juftligi yurtimizga uchib kelgan zahoti xas-cho'plardan uya qurishga kirishadi va modasi momiq parlaridan to'shama yasab o'n ikkita-garcha tuxum qo'yadi. Vaqt o'tishi bilan ona o'rdak och-yashil tusdagi tuxumlardan chiqqan jo'lalarga yetakchilik qiladi.

Bo'yni yaltiroq, dumi qayrilgan nar o'rdaklar erta tongdanoq suv havzalarida paydo bo'lib, qanotlarini keng yozgancha, chiroyli raqsga tushadi. Yorqin patlarini ko'z-ko'z qilib moda atrofida parvona bo'ladi. Hatto turdoshlari bilan jang qilishga ham tayyor turadi.

Yovvoyi o'rdaklarning yashash tarzi oson kechmaydi. Ko'pincha ular uyasiga yirtqichlar hujum qiladi. Shuning uchun ona o'rdak uyadagi tuxumlarini bir paytning o'zida imkon qadar tezroq ochib, bir-ikki kun ichida jo'jalarni suv havzalarga ergashtirib ketadi. Mitti o'rdakchalar juda yoqimtoy. Ona o'rdak ortidan ergashib sira charchamaydi. Lekin daryo suvi ko'tarilganida talafot yuz berib, uya va jo'jalari oqib ketishi mumkin. Bunday paytlarda g'amxo'r ota-onalardan mas'uliyat va yanada hushyorlik talab etiladi.

Nar qush ham bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Jo'jalarni suv yuzasiga tushirib oziq topishga undaydi. Vaqti-vaqti bilan qamishzor chetiga kelib, atrofini kuzatishni kanda qilmaydi.

...Kutilmaganda bir kun qattiq qiyqiriq eshitilib, tepada bir nechta oq charloq paydo bo'ldi. Ular o'rdak bolalari ustida gir aylanib, bu yerdan uzoqlashmasdi. Bosqinchilar dam yuqoriga ko'tarilar, dam tik pastga o'tilib suv yuzasiga yaqinlashgancha o'rdakchalarni tutishni mo'ljallab parvoz qilardi.

Tahlilakali damlar ancha vaqtgacha davom etdi. Ona o'rdak har gal zo'r berib g'ag'illab suvdan ko'tarilib chiqqanida tumshuq va qanotlari bilan zarb berib bosqinchi hujumini qaytarishga urinardi. Lekin kuchlar teng emasdi. Ona o'rdak bir muddat dovdirab qoldi. Boz ustiga qo'rqqanidan g'uj bo'lib turgan polaponlarning tarqalib, nari ketib qolmasligiga ham ko'z-quloq bo'lmog'i kerak edi.

Baxtga qarshi ona o'rdak yana bir bor ko'tarilib hujumga o'tayotgan qushlarning biriga tashlangan zahoti boshqalari to'p bo'lib turgan jo'jalardan bir nechtasini olib qochishga ulgurdi. Jo'jalar har tomondan tarqab ketdi. Bu esa "jang" oqibatini hal qilib berdi. Ona o'rdak bosqinchilarning dam biriga, dam boshqasiga tashlanardi. U bolalarini to'plash uchun behuda urinar, dam qanot qo'qib yuqoriga ko'tarilar, dam suvda suzib gir aylanardi.

Shu orada maxsus kiyimdagisergak nozir qo'shotar miltig'i bilan osmonga ketma-ket o'q uzdi. Quloqni qomatga keltiruvchi gumburlagan ovozdin bosqinchi qushlar lahmagatushib ko'ldan uzoqlashdi. Ona o'rdak esa qolgan jo'jalarini to'plab, jon saqlash uchun bexavotir changalzor tomon suzib ketdi. Ha, polaponlarni har qadamda xavf kutib turadi...

Sevara ABDULLAYEVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti biologiya va ekologiya fakulteti II bosqich talabasi

EKOSTARTAPLAR UCHUN IMKONIYAT



Kurs davomida ishtirokchilarga startap g'oyasini aniq, qisqa va ishonchli taqdim etish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalar beriladi. Taqdimot vaqtida loyiha mazmuni, maqsadi va amaliy qiymatini to'g'ri ochib berish orqali investor e'tiborini jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Arizalar 9-dekabrgacha qabul qilinadi.

Ro'yxatdan o'tish uchun skanerlang:

